

Date: 9th July-2026

CHOR MINOR INSHOOTIDA SHARQ VA MAHALLIY ME'MORCHILIK UYG'UNLIGI

Nurmuxammedov Mirvohid Xamidulla o'g'li

Namangan davlat universiteti talabasi

E-mail: nurmuhammadovmirvohidjon@gmail.com

Tel: +998 (94) 392 42 62

Annotatsiya: Mazkur maqolada Chor Minor madrasasi me'moriy yodgorligining shakllanish tarixi, tuzilish xususiyatlari hamda uning Sharq va mahalliy me'morchilik an'analari uyg'unligidagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida inshootning reja tuzilishi, ichki va tashqi me'moriy yechimlari, shuningdek, uning badiiy bezaklari va ramziy mazmuni yoritiladi. Maqolada Chor Minorning XIX asr boshlaridagi Buxoro me'morchiligi rivojida ahamiyati hamda uning madaniy meros sifatidagi qiymati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Chor Minor madrasasi, Buxoro me'morchiligi, XIX asr me'morchiligi, madrasalar tizimi, to'rt minora, Sharq me'morchiligi, mahalliy me'morchilik an'analari, me'moriy kompozitsiya, koshin bezaklari, tarixiy yodgorliklar, madaniy meros.

Аннотация : В данной статье научно анализируются история формирования, архитектурные особенности и место в системе взаимодействия восточных и местных архитектурных традиций архитектурного памятника медресе Чор Минор. В ходе исследования рассматриваются планировочная структура здания, его внутренние и внешние архитектурные решения, а также художественное оформление и символическое содержание. В статье также освещается значение Чор Минора в развитии бухарской архитектуры начала XIX века и его ценность как объекта культурного наследия.

Ключевые слова: Медресе Чор Минор, архитектура Бухары, архитектура XIX века, система медресе, четыре минарета, восточная архитектура, местные архитектурные традиции, архитектурная композиция, керамический декор, исторические памятники, культурное наследие.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the formation history, architectural features, and the role of the Chor Minor madrasah within the interaction of Eastern and local architectural traditions. The study examines the building's spatial structure, its interior and exterior architectural solutions, as well as its artistic decoration and symbolic meaning. The article also highlights the significance of Chor Minor in the development of Bukhara architecture in the early 19th century and its value as a cultural heritage site.

Keywords: Chor Minor madrasah, Bukhara architecture, 19th-century architecture, madrasa system, four minarets, Eastern architecture, local architectural traditions, architectural composition, ceramic decoration, historical monuments, cultural heritage.

Markaziy Osiyo me'morchilik san'ati insoniyat madaniy taraqqiyotining eng qadimiy va boy qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ushbu hududda asrlar davomida



Date: 9th July-2026



shakllangan qurilish an'analari turli davrlar, siyosiy jarayonlar hamda madaniy almashinuvlar ta'sirida doimiy ravishda rivojlanib borgan. Natijada har bir tarixiy shahar o'ziga xos me'moriy maktabga ega bo'lib, bu maktablar orqali xalqning estetik qarashlari, diniy dunyoqarashi va muhandislik bilimlari namoyon bo'lgan. Ayniqsa, Buxoro shahri Sharq islom me'morchiligining yirik markazlaridan biri sifatida o'zining betakror yodgorliklari, murakkab qurilish tizimi va nafis bezak san'ati bilan alohida o'rin egallaydi. Buxoroda shakllangan me'moriy muhitda ko'plab madrasa, masjid, minoralar va savdo inshootlari barpo etilgan bo'lib, ular nafaqat diniy-ma'rifiy vazifani bajargan, balki shaharsozlik tizimining muhim tarkibiy qismi ham bo'lgan. Ana shunday noyob me'moriy yodgorliklardan biri Chor Minor madrasasi hisoblanadi. Ushbu inshoot o'zining noodatiy kompozitsiyasi, to'rt minorali tuzilishi va kichik hajmiga qaramay, badiiy yechimlarining o'ziga xosligi bilan boshqa madrasalardan keskin farq qiladi.

Chor Minor yodgorligi Buxoro me'morchilik an'alarining ijodiy yondashuv bilan boyitilgan namunasi sifatida qaraladi. Unda Sharq me'morchiligiga xos bo'lgan ramziylik, geometrik uyg'unlik va rangli koshin bezaklari bilan bir qatorda, mahalliy Buxoro qurilish maktabiga xos bo'lgan mustahkamlik, ixchamlik va konstruktiv aniqlik ham yaqqol namoyon bo'ladi. Shu jihatdan ushbu inshoot turli me'moriy an'alarining sintezi sifatida alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Mazkur maqolada Chor Minor me'moriy obidasining Sharq va mahalliy me'morchilik an'analari o'rtasidagi uyg'unlik jarayoni keng ilmiy tahlil qilinadi. Xususan, binoning qurilish konsepsiyasi, arxitektura kompozitsiyasi, bezak san'ati hamda ramziy ma'nolari chuqur o'rganilib, uning madaniy-tarixiy ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, ushbu yodgorlik orqali Buxoro me'morchilik maktabining o'ziga xos rivojlanish yo'nalishlari va Sharq arxitektura an'analari bilan o'zaro ta'siri yoritiladi.

XIX asr boshlarida Markaziy Osiyo hududida siyosiy jihatdan mustahkamlangan Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari shakllandi. Shu davrdan boshlab yirik hajmli va ommaviy foydalanishga mo'ljallangan binolar qurilishi yana jonlandi. Feodal davrining so'nggi bosqichiga xos shaharsozlik an'alarining yorqin namunalari Xiva shahrida barpo etilgan saroylar, madrasalar va masjidlarda o'z ifodasini topdi. Jumladan, Tosh hovli saroyi, Xudoyorxon o'rdasi hamda Samarqand hududidagi amirlik saroylari qurilish uslubi jihatidan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Buxoro shahrida ham mazkur davrda yangi turdagi me'moriy inshootlar shakllanib, ular orasida Chor Minor madrasasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu inshoot 1807-yilda turkman Xalifa Niyozqul tomonidan qurdirilgan bo'lib, u o'zining to'rt gumbazli-minorali tuzilishi bilan boshqa me'moriy obidalaridan farqlanadi[1]. Madrasaning reja tuzilishida to'g'ri to'rtburchak shaklidagi hovli markaziy o'rin egallaydi. Hovli atrofida bir qavatli ustunli ayvonlarga ega xonalar joylashtirilgan. Binoning janubi-g'arbiy qismida ikki qavatli sinchli masjid joylashgan bo'lib, uning pastki qavatli kirish yo'lagi vazifasini bajaradi, yuqori qavatli esa kutubxona sifatida foydalanilgan.

Inshootning kirish qismi markazlashtirilgan tuzilma asosida ishlangan bo'lib, arkali gumbazli kirish qismi va to'rt burchagida joylashgan moviy gumbazli minoralar bilan ajralib turadi. Aynan shu to'rt minora inshoot nomining kelib chiqishiga asos

Date: 9th July-2026



bo'lgan. Minorlarning yuqori qismi geometrik naqshlar bilan bezatilgan koshinlar orqali ishlangan bo'lib, ular gumbazsimon yakun bilan tugallanadi. Chor Minor o'zining sodda, biroq uyg'un tuzilishi va badiiy yechimlari bilan XIX asr Buxoro me'morchiligida o'ziga xos noyob namuna sifatida qadrlanadi.

Chor Minor inshootining me'moriy yechimi nafaqat tashqi ko'rinishdagi o'ziga xoslik, balki ichki tuzilishdagi funksional uyg'unlik bilan ham ajralib turadi. Binoda joylashgan xonalar o'zaro bog'langan holda rejalashtirilgan bo'lib, ular ta'lim jarayoni va kundalik faoliyat uchun qulay sharoit yaratgan. Ayvonli xonalar tizimi esa iqlim sharoitiga moslashgan holda yozgi va qishki foydalanish imkoniyatini ta'minlagan.

Inshoot kompozitsiyasida kirish qismi va minoralar o'rtasidagi mutanosiblik alohida ahamiyat kasb etadi. To'rt minoraning burchaklarda joylashuvi binoning fazoviy muvozanatini ta'minlab, unga vertikal yo'nalishda ko'tarinki ko'rinish beradi[2]. Shu bilan birga, bu minoralar faqat bezak elementi emas, balki inshootning ramziy va badiiy ifodasini kuchaytiruvchi muhim me'moriy unsur sifatida ham xizmat qiladi.

Binoning tashqi bezaklarida rangli koshinlardan foydalanish orqali yuzaga keltirilgan naqshlar mahalliy bezak san'ati an'alarini davom ettiradi. Geometrik va o'simliksimon bezaklarning uyg'unligi inshootning estetik qiymatini oshirib, unga nafis va jozibador ko'rinish beradi. Ushbu bezak uslubi Buxoro me'morchilik maktabiga xos an'anaviy usullar bilan uyg'unlashgan holda shakllangan.

Shu jihatdan Chor Minor inshooti nafaqat diniy-ma'rifiy bino, balki turli me'moriy an'alar sintezi asosida yaratilgan badiiy asar sifatida ham ahamiyatlidir. Uning tuzilishida shakl va mazmun birligi, funkcionallik va estetik yechim o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi.

Chor Minor madrasasi Buxoro shahrining noodatiy me'moriy yodgorliklari qatorida alohida o'rin egallaydi. Ushbu inshoot Labi Hovuz majmuasi orqasida, ochiq maydon hududida joylashgan bo'lib, shahar me'morchilik muhitining o'ziga xos namunasi. "Chor Minor" atamasi "to'rt minora" degan ma'noni anglatadi va bu nom binoning tashqi tuzilishini to'liq ifodalaydi. Inshoot kvadrat shaklida rejalashtirilgan bo'lib, uning to'rt burchagida joylashgan kichik minoralar bilan ajralib turadi. Ushbu minoralar bir-biridan shakl va bezak jihatidan farq qiladi hamda moviy rangli gumbazlar bilan yakunlangan. Bu holat binoning kompozitsion yechimida rang va shakl uyg'unligini ta'minlaydi.

Tadqiqotchilar tomonidan ayrim bezak elementlari ramziy mazmunga ega deb talqin qilinadi. Xususan, minoralardagi ayrim shakllarning diniy-falsafiy tasavvurlar bilan bog'liq bo'lishi, ularni dunyoning turli madaniy va e'tiqodiy qarashlari bilan bog'lashga asos bo'ladi. Bu esa inshootning nafaqat me'moriy, balki ma'naviy jihatdan ham murakkab mazmunga ega ekanini ko'rsatadi. Binoning kirish qismi oldida ayvon joylashgan bo'lib, uning markazida tosh bilan qoplangan kichik hovuz mavjud. Ayvon atrofida esa hujralar tizimi joylashtirilgan bo'lib, ular madrasaning ta'lim va yashash funksiyalarini ta'minlagan[3].

Chor Minor madrasasi majmuasining asosiy inshooti masjid hisoblanadi. Tashqi ko'rinishidagi noodatiy me'moriy yechimlarga qaramay, uning ichki tuzilishi O'rta Osiyo masjidlariga xos an'anaviy me'moriy tartibni saqlab qolgan. Xususan, gumbazli xona ichki

Date: 9th July-2026



akustik jihatdan qulay bo'lib, tovushning tabiiy aks sadosini kuchaytiradi. Mazkur xususiyat sababli bino ayrim hollarda "zikrxona" sifatida ham talqin qilinadi. Bu yerda so'fiylik an'analariga xos bo'lgan "zikr" marosimlari o'tkazilgan bo'lib, unda tilovat, qo'shiq va cholg'u ijrochiligi uyg'un holda bajarilgan. Bu holat inshootning nafaqat me'moriy, balki ma'naviy va marosimiy vazifaga ham ega bo'lganini ko'rsatadi. Markaziy inshootning ikki yon tomonida turar joy hujralari joylashtirilgan bo'lib, ularning bir qismi vaqt o'tishi bilan yemirilgan va hozirda faqat poydevor qoldiqlari saqlanib qolgan. Shu sababli majmuaning to'liq ta'lim faoliyati uchun mo'ljallangan ayrim yordamchi xonalar bugungi kungacha yetib kelmagan.

Umuman olganda, madrasalar tizimida ma'ruza xonalarining mavjudligi har doim ham asosiy shart bo'lmagan. Ko'plab madrasalarda dars jarayoni ko'proq ustoz-shogird an'anasi asosida amalga oshirilgan bo'lib, ayrim hollarda maxsus ma'ruza xonolari amalda faol ishlatilmagan. Shu jihatdan Chor Minor ham ko'proq yashash va ibodat maskani sifatida xizmat qilgan inshootlar sirasiga kiradi. Majmua yaqinida joylashgan ochiq hovuz ham bino bilan bir davrda barpo etilgan deb taxmin qilinadi. Ushbu suv inshooti nafaqat amaliy ehtiyojlarni, balki hududning me'moriy muhitini shakllantirishda ham muhim rol o'ynagan[4].

Hozirgi vaqtda Chor Minor madrasasi atrofida kichik turar joylar va savdo nuqtalari joylashgan bo'lib, bu holat tarixiy muhitning zamonaviy shahar hayoti bilan uyg'unlashib ketganini ko'rsatadi. Majmuaning minoralari aslida an'anaviy ma'nodagi minora emas, balki turli vazifalarni bajargan yordamchi inshootlar hisoblanadi. Ularning ayrimlari omborxona sifatida foydalanilgan, ulardan birida esa yuqori qavatga chiqish uchun zinapoya joylashtirilgan. Barcha minoralar moviy rangli sopol koshinlar bilan qoplangan gumbazlar orqali yakunlangan. Har bir minora o'ziga xos bezak naqshlariga ega bo'lib, ular turli madaniy va diniy ramzlar bilan bog'lab talqin qilinadi. Ayrim qarashlarga ko'ra, bu bezaklarda Markaziy Osiyo hududida ma'lum bo'lgan turli diniy an'analar aks etgan bo'lishi mumkin. Jumladan, zardushtiylik, islomiy naqshlar bilan bir qatorda xoch, baliq va ibodat g'ildiragini eslatuvchi shakllar ham uchrashi qayd etiladi. 1995-yilda yer osti suvlarining ta'siri natijasida minoralardan biri qulab tushgan. Ushbu holat inshootning umumiy mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, keyinchalik tiklash ishlari amalga oshirilgan. Ta'mirlash jarayonida an'anaviy qurilish usullaridan chetga chiqilgan holda zamonaviy qurilish materiallari ham qo'llanilgan. Shu tariqa, Chor Minor madrasasi bugungi kunda Buxoroning eng mashhur tarixiy yodgorliklaridan biri sifatida saqlanib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Chor Minor madrasasi XIX asr boshlarida Buxoro me'morchiligining o'ziga xos va noyob namunalaridan biri sifatida shakllangan. Ushbu inshoot o'zining noodatiy me'moriy yechimi, to'rt minora bilan ifodalangan kompozitsiyasi hamda mahalliy va Sharq me'morchilik an'alarining uyg'unlashuvi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Chor Minor nafaqat diniy-ma'rifiy bino, balki o'z davrining ijtimoiy-madaniy qarashlarini aks ettiruvchi me'moriy yodgorlik ham hisoblanadi. Uning ichki tuzilishi an'anaviy masjid va madrasa

Date: 9th July-2026

tizimiga mos kelgan holda shakllangan bo‘lib, binoning tashqi ko‘rinishi esa ijodiy erkinlik va badiiy tafakkur mahsulidir.

Shuningdek, inshootning bezak tizimi va minoralar kompozitsiyasi turli madaniy ta’sirlar uyg‘unligini ifodalaydi. Bu esa Chor Minorni nafaqat Buxoro, balki butun Markaziy Osiyo me’morchilik merosida alohida o‘rin tutuvchi yodgorlik sifatida baholashga asos bo‘ladi.

Umuman olganda, Chor Minor madrasasi tarixiy, me’moriy va madaniy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u bugungi kunda ham o‘zining estetik qimmatini va ilmiy o‘rganishdagi dolzarbligini saqlab qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Vaxitov M.M., Mirzayev Sh.R. Me'morchilik. – Toshkent, "Tafakkur" nashriyoti, 2010. – 366 b.
2. To‘rayev H. Buxoro tarixi. – Buxoro, “Durdona” nashriyoti, 2020. – 320 b.
3. <https://www.advantour.com/uzbekistan/bukhara/chor.htm>
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Chor_Minor